XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 18 - avgust VI-71-130-9-122-K/22 Oqoltin tumani hokimligi

Tumandagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oqoltin tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 05-apreldagi 01-14-443-sonli ekspert xulosasi va 2022-yil 05-apreldagi 08-02593-sonli xatiga muvofiq tuman hokimining mahallalardagi ayrim nomsiz qabristonlarga yangi nomlar berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi (Yangi Toshkent, Andijon, Obod, Bo‘ston) mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi qabristonlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Sh.Qurbonov), Kadastrlar palatasi Oqoltin tumani filiali (N.Ismoilov), tuman qurilish bo‘limi (A.Qudratov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari, tuman hokimligi bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inidagi yangidan nomlangan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Tuman qurilish bo‘limi (A.Qudratov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Kukanov) hududlarda yangi nomlangan geografik obektlarga nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (B.Yusupov), “Oqoltin ovozi” gazetasi tahririyati (A.Pardaev)ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (A.Haydarov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Axmedov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi v.v.b. **R.Z.Axmedov**

Xalq deputatlari Oqoltin tuman
Kengashining
2022 yil 18 avgustdagi
VI-71-130-9-122-K/22-son qaroriga
1-ilova

Oqoltin tumanida Geografik obyektlarni inventarizatsiyadan o‘tkazilgan hamda tasdiqlangan nomlangan Geografik obyektlar

Ro'yxati

T/r	Geografik obyekt turi	Joylashgan o‘rni	Berilayotgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Yangi Toshkent MFY	Sardoba musulmonlar qabristoni, Sardoba shaharchasi qabristoni, Sardoba qabristoni	Takliflardan Sardoba nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Qabriston	Yangi Toshkent MFY	Sardoba nasroniylar qabristoni, Sardoba 2 qabristoni, Sardoba shaharchasi 2 qabristoni	Takliflardan Sardoba nasroniylar nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	Obod MFY	Farg‘ona shaharchasi qabristoni, Farg‘ona shaharcha chin dunyo qabristoni, Farg‘ona shaharcha xaqiqat qabristoni	Takliflardan Haqiqat nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	Andijon MFY	Andijon mahalla qabristoni, Andijon mahallasi Abadiy xayot qabristoni, Andijon mahallasi Mangulik qabristoni.	Takliflardan Mangulik nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Qabriston	Bo‘ston MFY	Bo‘ston mahalla qabristoni, Bo‘ston qishloq qabristoni, Bo‘ston qabristoni	Takliflardan Bo‘ston nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.